MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH RESPUBLIKA ILMIY-METODIK MARKAZI

Respublika Ta'lim Markazi

IV USTOZLAR MILLIY FORUMI

MAVZU: O'QUVCHILARNING O'QISH SAVODXONLIGI KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Fasilitator:

D.BAYNAZAROVA
Toshkent shahar 302-maktab

Maqsadlar

Ushbu mashg‘ulotda davomida

- O‘qish savodxonligini rivojlantirishga xizmat qiladigan asosiy usullar
- Boshlang‘ich sinflarda xalqaro tajribalar asosidagi PIRLS topshiriqlarini bajarishdagi muammolar
- PIRLS matnlaridan badiiy matn va axborot matni bilan ishlashda Lepbook usulidan samarali foydalanish

Tanishuv va ishonchni mustahkamlash
Kichik guruhlarga bo‘linish

“Men kimman?”
yoki
“Biz jamoamiz!”

Maqsad:
O‘quvchilarning bir-biri bilan tanishishi

Faoliyatlar: Doira ichida o‘zini tanishtirish, ismlar zanjiri o‘yini, umumiy belgilarni topish (masalan, “Kimlar ertalab nonushta qilgan?” deb savol beriladi, ko‘tarilgan qo‘l soni bo‘yicha tanishadilar



NIMA DEB O‘YLAYSIZ?

Bugungi dars sizning hayotingizga qanday foyda keltirishi mumkin?

Kitoblarni yaxshi ko‘rgan odamlar…
(jumlaning davom ettiring)

TASAVVUR QILING…

Siz rejissiyorsiz! Agar bugungi mavzuga asoslangan kino ishlasangiz, uning nomini qanday nomlar edingiz?

O‘qish savodxonligi tushunchasi nima?

Savodxonlik deganda: faqat o‘qishni emas, balki o‘qilgan matndan ma’no chiqarish, tahlil qilish va foydalanish qobiliyatlari tushuniladi

Ko‘nikmalar turlari:

- Matnni tushunish
- Axborotni ajratish
- Tahlil qilish va izoh berish
- Baholash va xulosa chiqarish

O‘QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHDAGI ASOSIY USULLAR

Fonetik (tovush asosida) o‘qitish usullari

Harflarni tovushlar bilan bog‘lash o‘rgatiladi.

O‘quvchi harfni ko‘rib, uning qanday talaffuz qilinishini tushunadi.

Boshlang‘ich sinflarda foydalanish samara beradi.

So‘z boyligini oshirish

Har kuni yangi so‘zlar bilan tanishtirish.

Sinonim, antonim va ko‘p ma’noli so‘zlar ustida ishlash.

O‘quvchilarni turli janrdagi matnlar bilan tanishtirish.

Matn ustida ishlash (ma’noli o‘qish)

O‘qilgan matn asosida savollar berish.

Matnning asosiy g‘oyasini toptirish.

Matnni qisqacha bayon qildirish, tuzilishini tahlil qilish.

Talaffuz va intonatsiyani rivojlantirish

To‘g‘ri, ravon va ifodali o‘qish mashqlari.

Dialoglar va she’rlarni ifodali o‘qish orqali o‘qish malakasini oshirish.

PIRLS TADQIQOTIDA O‘QISH SAVODXONLIGI

Bu - jamiyat tomonidan talab qilinadigan va inson tomonidan qadrlanadigan yozma tilning shakllarini idrok etish hamda amaliyotda qo‘llay olish qobiliyatidir.



Eng yuqori (oliy)- **625 - 1000 ball**

Yuqori -**550 - 625 ball**

O'rtacha – **475 – 550 ball**

Past – **400 - 475 ball**

PIRLS tadqiqotlarida xalqaro miqyosda hammasi bo‘lib, to‘rtta daraja ko‘rsatilgan

PIRLS tadqiqotida 2 xil matn tahlil qilinadi

Badiiy matnlar

1

Adabiy kitobxonlik malakasini egallash maqsadida o‘qish



Axborotli matnlar

2

Axborotni o‘zlashtirish va foydalanish maqsadida o‘qish

O‘QISH STRATEGIYALARI

PIRLS TOPSHIRIQLARINI BAJARISHDAGI MUAMMOLAR

O‘quvchilarda mantiqiy fikrlash va ijodkorlikning yetishmasligi, matn bilan ishlashda qo‘shimcha adabiyotlardan foydalana olmaslik

Darslarda kreativlik, tanqidiy fikrlash va muammoli vaziyatlarga doir topshiriqlarning kam berilishi

O‘quvchilar o‘qiyotgan matnning ma’no mazmuniga tushunmasligi, matn ustida kam ishlash

O‘qigan asarini talqin qilib, analiz va sintezdan o‘tkazib, yozma nutqqa aylantirib, fikrini to‘g‘ri va to‘liq aniq ma’lumotlar asosida yoza olmaslik ko‘nikmasi yetishmasligi

BADIIY MATN (LITERARY TEXT)

Ma’nosi: Bu matnlar o‘quvchini zavqlantirish, his-tuyg‘ularini uyg‘otish, hayotiy tajribalarni aks ettirish uchun yoziladi.

Xususiyatlari:

Personajlar (qahramonlar) bo‘ladi.

Voqealar rivoji (süjet) mavjud.

Tasviriy til, badiiy vositalar (metafora, tashbeh, epitet) keng qo‘llaniladi.

Ko‘pincha xayoliy yoki badiiy ixtiroga asoslangan bo‘ladi.

Hissiyot va tajriba asosiy o‘rinda turadi.

Misollar: Hikoyalar, Ertaklar, Romanlar, Badiiy dialoglar



Daraja	Ballar	Mahorat tavsifi
Past	**400 – 475**	1. Matnning muayyan qismlarini ajratib koʻrsatish. 2. Ulardan oddiy xulosalarni ifodalashda foydalanish.
Oʻrta	**475 – 550**	1. Voqealar oʻrtasidagi oʻzaro aloqalarni koʻrsatish. 2. Matnning umumiy gʻoyasini aniqlash. 3. Matn tarkibining elementlarini ochib berish. 4. Qahramonlar xatti-harakatiga izoh berish.
Yuqori	**550 – 625**	1. Asar qahramonlarining xatti-harakatlari va his–tuygʻularini taqqoslash va qiyoslash, oʻzaro aloqalarini tushuntirish. 2. Matnda qoʻllangan til vositalarining xususiyatlari ustida birlamchi tahlil oʻtkazish.
Oliy	**625 – 1000**	1. Matnning asosiy gʻoyasini tushunish, yashiringan axborotlarni aniqlash va umumlashtirish. 2. Matndagi savollarga qahramonlarni asosiy tavsiflari, ularning intilishlari va his- tuygʻularini izohlash orqali javob berish. 3. Matndan misollar keltirib, javoblarni asoslash.

AXBOROT MATNI (INFORMATIONAL TEXT)

Ma’nosi: Bu matnlar o‘quvchini ma’lumot bilan ta’minlash, bilim berish maqsadida yoziladi.

Xususiyatlari:

Haqiqiy faktlar va aniq ma’lumotlar bo‘ladi.

Tashkiliy tuzilma aniq (sarlavhalar, bo‘limlar, punktlar).

Izohli rasm, jadval, diagrammalar bo‘lishi mumkin.

Til rassomona emas, balki aniq, sodda bo‘ladi.

Maqsad — o‘rgatish yoki axborot yetkazish.

Misollar:

Maqolalar (ilmiy-ommabop), ensiklopediya sahifalari hisobotlar, qo‘llanmalar

Daraja	Ballar	Mahorat tavsifi
Past	400 - 475	1. Matnda keltirilgan dalillarni aniqlash va tasvirlash. 2. Kerakli axborotni o‘zida mujassamlashtirgan gapni ajratish. 3. Xulosalarni izohlash uchun olingan axborotdan foydalanish.
O‘rta	475 – 550	1. Matnda taqdim etilgan axborotga muvofiq xulosa chiqarish. 2. Matnning qismlarini tahlil qilish va kerakli axborotni ajratish.
Yuqori	550 – 625	1. Matnda yashirin berilgan axborotni aniqlash. 2. Matndagi alohida gaplar o‘rtasidagi mazmuniy aloqalar asosida xulosalarni ifodalash. 3. Matn mazmunini izohlab berish. 4. Turli tipdagi matnlardan foydalanish va alohida tavsiflarni belgilash.
Oliy	625 – 1000	1. Matn qismlaridagi murakkab ma’lumotlarni anglash va asoslash. 2. Matnlar, xaritalar, illuystrasiyalar, diagrammalar va rasmlar kiritilgan materiallar asosida turli matnlardagi ma’lumotlarni umumlashtirish.

Hikoya elementlariga e’tibor qaratishdan oldin boshlash uchun umumiy savollar:

- Siz nimani baham ko‘rmoqchisiz?
- Siz ... haqida qanday fikrdasiz?
- Hikoyadan nimani o‘rganyapsiz?
- Sizningcha, bu qanday muhim adabiyot? Nima uchun bu muhim edi?

Vaqt/ joyi, zamon, makon, muhit

- Hikoya qayerda sodir bo‘ladi?
- Hikoya qachon yuz beradi?
- Bu boshqa joyda bo‘lishi mumkinmi? Agar shunday bo‘lsa, qayerda?
- Hikoya bu dunyoda sodir bo‘lishi mumkinmi?
- Muallif bu joyni qanday ta’riflagan?
- Muallif vaqtni qanday ta’riflagan?
- O‘qiyotganingizda nimani ko‘rishingiz, his qilishingiz, eshitishingiz, hidlashingiz mumkin edi?
- Hikoyada qancha vaqt o‘tadi?

Qahramonlar

- Har bir personajning bir-biriga nisbatan munosabati haqida nimalarni o‘rganyapsiz?
- Sizningcha har bir personaj hikoyada o‘zgaradi?
- Har bir belgi qanday o‘zgarishini hohlar edingiz? Nima uchun?
- Bunga ishonishingizga nima sabab bo‘ldi?
- Agar bu sizning boshingizga tushsa, o‘zingizni qanday his qilasiz?

Natijalarni baholash (PIRLS mezonlari asosida)

Matndan ma’lumotni topish – 1 ball

Tushunish va tushuntirish – 2 ball

Tahlil qilish va izohlash – 3 ball

O‘z fikrini asoslash – 4 bal

ENERJAYZER KAYFIYATNI KO‘TARISH UCHUN QAHRAMONLAR ROLLI O‘YINI

ZUMRAD VA QIMMAT

1. Zumrad qanday qiz? Qaysi uchta xislatini bilasiz?
2. Qimmatchi?
3. Zumrad o‘zini himoya qila oladigan qiz deb o‘ylaysizmi?
4. U o‘zini himoya qilishga harakat qilib ko‘rdimi hech?
5. Nima qilsa bo‘lardi? Irodali bo‘lib o‘gay onasi bilan yaxshilikcha gaplashib ko‘rdimi?
6. Chol ham hech kampir bilan gaplashib ko‘rdimi?

7. Chol to‘g‘ri qildimi?

8. Uning o‘rniga nima qilsa bo‘lar edi?

9. Hayotda ham qayerdadir adashib qolsa, odam sehrgarni uchratishi mumkinmi?

10. Zumrad kampirga o‘zining qaysi ijobiy fazilatlarini ko‘rsatdi?

Sehrgar kampir Zumradga tilla to‘la sandiq beribdi. Zumradning butun umriga yetib, ortar emish.

11. Hayotda ham bir odam boshqa odamga sandiq to‘la tilla berishi mumkinmi?

“SO‘Z O‘YINI” MASHQI

O‘yinni o‘tkazish jarayoni:

1. Kichik guruhlarga bo‘linib, har bir guruh a’zosi daftariga bitta nima? so‘rog‘iga javob bo‘ladigan so‘zni yozadi.

OLMA

Olma qo‘limdan tushib,

KITOB

kitobim ustiga yumaladi.



ESHITAMIZ,TUSHUNAMIZ, BAJARAMIZ
PIRLSGA TAYYORGARLIK

Ertak

Aqlli chiroyli bir qizchaning tug'ilgan kuni edi. Otasi ishdan kelib unga chiroyli koptok sovg‘a qildi. Qizcha o‘ng qo‘li bilan koptokni yerga urdi. Onasi esa unga qizil taroq sovg‘a qildi. Qizcha o‘ng qo‘li bilan koptokni urib, chap qo‘li bilan sochini taradi. Bobosi esa unga konki sovg‘a qildi. U o‘ng qo‘li bilan koptokni yerga urib, chap qo‘li bilan sochini tarab konkida uchayotgan edi shu payt buvisi kelib qoldi. Buvisi unga ko‘zlarini ochib yumadigan, boshini qimirlatadigan qo‘g‘irchoq sovg‘a qildi. Qizaloq sovg‘alarga qaradi va juda xursand bo‘ldi. Hammaga rahmat aytib ta’zim qildi

PIRLSGA TAYYORGARLIK

1-GURUH UCHUN

- **Quvnoq quyonchaning tug‘ilgan kuni"**

Quvnoq quyonchaning tug‘ilgan kuni edi. Birinchi bo‘lib do‘stlari – qushlar kelishdi.

Ular quyonchaga shirin nonvoycha sovg‘a qilishdi.

Quyoncha o‘ng qo‘li bilan shirin nonvoychani havoda aylantirdi.

Keyin fil amakisi kelib qoldi. Fil amakisi unga katta shoxli karnay sovg‘a qildi. Quyoncha chap qo‘li bilan karnay chaldim deb ovoz chiqardi.

Shundan so‘ng tipratikan do‘sti keldi. U quyonchaga kichkina badiiy fanera doiracha sovg‘a qildi. Quyoncha uni ikki qo‘li bilan chalib, ritm qildi.

- Oxiri kichik sincap keldi. U qo‘g‘irchoq - raqqosa sovg‘a qildi. Quyoncha bir joyda sakrab raqsga tushdi. Quyoncha barcha sovg‘alarga qarab quvonch bilan ikki qo‘lini baland ko‘tarib "Rahmat!" dedi va barcha do‘stlariga bosh egib ta’zim qildi.

- **Harakatlar tartibi:**

O‘ng qo‘l bilan nonvoychani aylantirish.

Chap qo‘l bilan karnay chalish.

Ikki qo‘l bilan doiracha chalish.

Sakrab raqsga tushish.

Ikki qo‘lini ko‘tarib "Rahmat" deyish.

Bosh egib ta’zim qilish.

PIRLSGA TAYYORGARLIK

2-GURUH UCHUN

ERTAK: "Sinfda quvnoq ertalab"

Bir kuni ertalab bolalar sinf xonasiga xursand bo‘lib kirishdi. Ular salomlashib, ikki qo‘llarini ko‘tarib o‘qituvchiga salom berishdi.

O‘qituvchi:

— Yaxshi kayfiyat bilan darsni boshlaymiz! Qani, hammamiz cho‘zilaylik! — dedi.

Bolalar ikki qo‘llarini tepaga cho‘zib, cho‘zilishdi.

Keyin o‘qituvchi:

— Endi yelkamizni uch marta aylantiramiz, — dedi.

Bolalar yelkasini oldinga va orqaga uch marta aylantirishdi.

Shundan so‘ng o‘qituvchi:

— Kelinglar, o‘ng qo‘limiz bilan chap qulog‘imizni, chap qo‘limiz bilan o‘ng qulog‘imizni ushlaymiz! — dedi.

Bolalar bu harakatni bajarib kulib ketishdi.

O‘qituvchi yana dedi:

— Endi biz joyimizda sakrab turamiz — uch marta!

Bolalar uch marta sakrashdi. So‘ng o‘qituvchi:

— Endi qo‘limizni ochamiz va yopamiz — besh marta!

Bolalar qo‘llarini ochib-yopib besh marta harakat qilishdi.

Oxiri hamma bolalar qo‘llarini yoniga tushirib, boshini egib "Rahmat ustoz!" deb qo‘ydilar.

Harakatlar tartibi:

Qo‘llarini ko‘tarib salom berish.

Ikki qo‘lni cho‘zish.

Yelkasini uch marta aylantirish.

Qarama-qarshi qo‘l bilan quloqni ushlash.

Uch marta sakrash.

Qo‘llarni besh marta ochib-yopish.

Bosh egib "Rahmat ustoz!" deyish.

PIRLSGA TAYYORGARLIK

3-GURUH UCHUN

ERTAK: "Ustozlar Forumi Sehrli Shaharda"

Bir kuni ustozlar Sehrli Shaharga yig‘ilishdi. Bu yerda Ustozlar Forumi o‘tayotgan edi.

Shahar markaziga kirgan har bir ustozga sehrli belgi berildi — kichik yulduzcha.

Ustozlar bir-birlariga qarab:

— Forumni quvnoq boshlaymiz! — deyishdi.

Matematika ustozlari yulduzchani ko‘tarib:

— Qani, hammamiz barmog‘imiz bilan havoda katta doira chizamiz!

Hammasi doira chizishdi. Ona tili ustozlari dedi:

— Endi og‘zingizni katta ochib "A, O, E" deb ayting va qo‘llaringizni yon tomonga oching!

Hammasi ovoz chiqarib "A, O, E" deyishdi.

Jismoniy tarbiya ustozlari o‘rtaga chiqib:

— Forumni sog‘lom boshlash kerak! Qani, uch marta joyimizda sakraymiz!

Keyin tasviriy san’at ustozlari:

— Endi havo ichida yurak va gul shaklini chizing!

Hammasi tasavvur qilib, qo‘llari bilan rasm chizishdi.

Musiqa ustozlari qo‘shildi:

— Qani, besh marta qarsak chalib, kuyga o‘xshatib uramiz!

Forum oxirida barcha ustozlar:

— Endi esa hamma o‘qituvchi qushdek qanot qoqib harakat qiladi va bir-biriga bosh egib "Rahmat!" deydi.

Shunday qilib, Sehrli Shahar ustida yulduzchalar porlab ketdi, chunki ustozlarning mehribonligi va harakati ham shaharni yoritib yubordi.

Harakatlar tartibi: Barmoq bilan doira chizish.

"A, O, E" deyish va qo‘llarni yon tomonga ochish.

Uch marta sakrash.

Havo ichida yurak va gul shaklini chizish.

Besh marta qarsak chalish.

Qushdek qanot qoqish.

Bosh egib, "Rahmat!" deyish.

QO‘G‘IRCHOQLAR YUZINI O‘Z KAYFIYATIMIZDA CHIZAMIZ VA QISQA MATN TUZAMIZ

Badiiy matn bilan guruhda ishlash
Lepbook usulida

“SO‘Z ZANJIRI”

Maqsad: O‘qilgan matndagi yangi so‘zlarni mustahkamlash.

Qoidalar:

Har bir guruh navbat bilan matndan eslab qolgan yangi so‘zlarni aytadi.

So‘z qolmaganida o‘yin to‘xtaydi. Eng ko‘p so‘z aytgan guruh yutadi



Axborot matni bilan ishlash
O‘zbekiston haqida lepbook





TA’LIMIY O‘YIN O‘TKAZISH TARTIBIGA KO‘RA 2 GURUHGA BO‘LINADI

1. JAMOAVIY
2. GURUHGA BO‘LINIB
Ta’limiy o‘yinni bu usullarda tasniflanishi o‘ziga xosligi XXI ars ko‘nikmalarini shakllantiradi.
PIRLSga mukammal tayyorlaydi

“5W + 1H” USULI

"5W + 1H" usuli — matnni chuqur tahlil qilish, tushunish va fikrlashni rivojlantirish uchun qo‘llaniladigan samarali metod bo‘lib, ingliz tilidagi quyidagi so‘zlarning bosh harflari asosida nomlangan:

Who? — Kim?

What? — Nima?

When? — Qachon?

Where? — Qayerda?

Why? — Nima uchun?

How? — Qanday?

XULOSALAR



O‘quvchilarda oddiy xulosalar bilan birga, matndagi g‘oyalar va axborotlarni talqin qilish, uyg‘unlashtirish, tafsilotlarni umumiy mavzular va g‘oyalar bilan bog‘lay olish ko‘nikmalarini rivojlantirish

Har bir o‘qituvchi o‘z amaliyotiga matn ustida ishlashni kiritishi kerak. Strategik o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish – kelajak asosidir.

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA‘LIMI VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH RESPUBLIKA ILMIY-METODIK MARKAZI

Respublika Ta’lim Markazi

Savollar bo‘lsa marhamat…

Ishtirokingiz uchun rahmat!